

SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUVINI TASHKIL YETISH ZARURIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Mahammadova Feruzaxon Mirzohid qizi
Farg'onan davlat universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxona boshqaruvida innovatsiyaning tarkibiy tuzilishi, sanoat korxonalarini faoliyatida innovatsion boshqaruvini tashkil yetish zaruriyati va bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarini o'rtaida vujudga keladigan raqobat kurashida ustun kelishning muhim shartlari tahlil qilingan. **Kalit so'zlar.** Sanoat korxonalarini, sanoat tarmoqlari, innovatsion faoliyat, innovatsion boshqaruv, boshqaruvning nazariy asoslari.

Kirish. Jahonda ishlab chiqarish munosabatlarining tobora murakkablashuvi sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, ishlab chiqarish hajmini intensiv omillar hisobiga oshirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga bo'lgan intilish kuchayib bormoqda. Xususan, bugungi kunda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalar boshqaruvi amaliyotiida ishlab chiqarish jarayonlariga ilm-fan sohasidagi yangiliklarni muntazam tatbiq etishga qaratilgan innovatsion boshqaruvning shakllanganligi hisobiga mazkur mamlakatlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.

Jahonda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasidagi masalalarni ilmiy yechimini topish yuzasidan qator maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini baholash, innovatsion loyihalarni korxonalar boshqaruvi amaliyotiga joriy etishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish, korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil etish samaradorligini oshirish, korxonalar o'rtaida innovatsiyalarni o'zaro uzatishga asoslangan innovatsion hamkorlikni jadallashtirish, korxonalar innovatsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, korxonaning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish, uning omillarini ekonometrik tadqiqotlar asosida aniqlash bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvini rivojlantirish, korxonalarda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, ularning innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish va bu asosda korxonalarining innovatsion boshqarish tizimini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tadbiq qilish" vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni joriy qilish, ularni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash, boshqarish

tizimi bilan bog'liq omillarni aniqlash, korxonalarning ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tadqiq qilish hamda samarali joriy etish yo'llarini aniqlash, innovatsion yo'nalishda rivojlanayotgan korxonalarning ishlab chiqarish hajmini oshirish, korxonalarning innovatsion yo'nalishdagi xarajatlarini iqtisodiyotga ta'sirini prognoz parametrlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarini o'rtaida vujudga keladigan raqobat kurashida ustun kelishning muhim shartlaridan biri bu ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, ularning nomenklaturasi, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan muntazam yangilab borish hisoblanadi. Ushbu holat sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunda korxonalar innovatsion boshqaruvi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi amal qilishida innovatsiyalardan foydalanishga ustuvorlik qaratish talab etiladi. Natijada mamlakat milliy iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yangi tashkil etilayotgan korxonalar zamonaviy boshqaruv amaliyotiga ixtisoslashgan holda, innovatsion boshqaruvgaga asoslanib o'z xo'jalik faoliyatlarini rivojlantiradilar.

Adabiyotlar tahlili. Innovatsiyalar takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotda samaradorlikka erishishda innovatsion rivojlanish jarayonini tadqiq etish va modellashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash zarurati yuzaga keladi. Shunga ko'ra bu jihat ilmiy omma tomonidan e'tiborga olinib, innovatsion rivojlanish muammolarining nazariy jihatlari bir guruh olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

1911-yilda Y.Shumpeter klassik innovatsiya nazariyasini mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida birinchilardan bo'lib, innovatsiya nazariyasi evolyutsiyasini boshlab bergen. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida innovatsiya masalalarini "rivojlanishdagi o'zgarishlarning yangi kombinatsiyalari" sifatida baholagan [1]. Tadqiqotchi mazkur kombinatsiyani 5 yo'nalishda: ishlab chiqarish uchun yangi texnologiya, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi bozorni qo'llab-quvvatlashdan foydalanish; yangi mahsulot yoki yangi xususiyatlarga ega taniqli mahsulot ishlab chiqarish; yangi turdag'i xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlardan foydalanish; ishlab chiqarishning moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar; yangi bozorga kirish yo'li sifatida talqin etgan va ilmiy asoslab bergen.

Shu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan yana bir olim N.D.Kondratyev o'z nazariyasi orqali jamiyatning iqtisodiy tuzilishidagi o'zgarishlarning asosiy innovatsiyalarni amalga oshirishga bog'liqligini isbotladi. Bunda, asosan, ikkilamchi, ya'ni modernizatsiya qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiyalarni amalga oshirish nazarda tutilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirish, innovatsion rivojlanishning zamonaviy muammolarini tahlil qilish, korxonalarning innovatsion faolligini va raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarga assoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beruvchi samarali innovatsion strategiyalarni shakllantirish bo'yicha uslubiy jihatlar va tahlil qilish masalalari sanoatning alohida tarmoqlari rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Tahlil va natijalar. Tahlillarga ko‘ra, zamonaviy menejment nazariyalarida korxonada innovatsion boshqaruvni tashkil etish orqali uni intensiv rivojlanishini va uzoq muddatli davrdagi iqtisodiy faoliyat yuritishining barqarorligini ta’minlashga erishilishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan. Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvini vujudga kelishi va uning rivojlanish shart-sharoitlarini tahlil qilishda avvalo innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yoritish maqsadga muvofiq.

Innovatsiya atamasi lotincha “innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, yangilash, o‘zgartirish kiritish degan ma’noni anglatadi. Ushbu atama iqtisodiy adabiyotga ilk bor Y. Shumpeter tomonidan kiritilgan bo‘lib, olim innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha ta’rif beradi: “yangi turdagи iste’mol tovarlari va xizmatlari, jumladan, korxonalarning egallagan bozor hajmini oshirishda noodatiy shakldagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish amaliyotini tashkil etish, yangi turdagи transport vositalaridan foydalanishi yoki ularni amaliyotga tatbiq etilishi innovatsiya deb baholanadi” [3]. Olim tomonidan innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga nisbatan ishlab chiqilgan yondashuvda innovatsiyalar noodatiy ravishda ishlab chiqarish jarayonlarining yangilanishi saifatida baholanganligi sababli zamonaviy innovatsion boshqaruv nazariyalarida ham muhim ahamaiyat kasb etadi.

Innovatsiya atamasi iqtisodiy adabiyotga fransuz iqtisodchi olimi Y. Shumpeter tomonidan kiritilganligiga qaramay, ko‘plab adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan mazkur kategoriyaning mazmuni va mohiyatini yoritishga qaratilgan nazariy qarashlar XX asrning 80 yillaridan boshlanganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, inglik iqtisodchisi F. Nikson tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda innovatsiya iqtisodiy kategoriyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar tomonidan takomillashtirilgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beruvchi texnika va texnologiyalardan foydalanish natijasida ishlab chiqarish va savdo munosabatlardagi namoyon bo‘ladigan o‘zgarishlar innovatsiya sifatida baholanadi [4].

Zamonaviy menejment sohasida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining shakllanishini ilk davrlari uchun xos bo‘lgan nazariyalarning shakllanishida uzoq xorijlik iqtisodchi olim B. Tviss asarlarida ham o‘z aksini topadi: “korxona boshqaruvi amaliyotida innovatsiya – yangi ixtiro yoki g‘oyaga iqtisodiy mazmun berilishidadir” degan fikrni ilgari suradi. Shunga o‘xhash fikrlar B. Santoning ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topadi [5]. Olim fikricha, “innovatsiya – bu ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro mutanosiblikdagi rivojlanish shakli bo‘lib, yangi g‘oyalar, ixtirolardan sanoat korxonalari boshqaruvi amaliyotida, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda foydalanish hisobiga sifatiroq bo‘lgan iste’mol tovar va xizmatlari ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali yuqori iqtisodiy foydaga erishish imkonini beruvchi jarayon hisoblanadi” [6].

Yuqorida keltirilgan olimlardan farqli o‘laroq, E. Dandon o‘z izlanishlarida korxona boshqaruvi jarayonida innovatsianing kreativlilik, strategiya, amalga oshirish (realizatsiya) va foydalilik kabi tarkibiy komponentlarga ega bo‘lishini ajratib ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Korxona boshqaruvida innovatsyaning tarkibiy tuzilishi

Zamonaviy menejment sohasida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga berilgan ta'riflarning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yakuniy natija va jarayon sifatida baholanganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi (1-jadvalga qarang).

Tahlillar ko'rsatishicha, innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga berilgan ta'riflar xo'jalik yuritish faoliyatining turlari, innovatsiyalardan foydalanish shakllari, innovatsiyalarning guruhanishi va korxonada innovatsion boshqaruvning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda o'zaro farqlanadi. Umumiy holda innovatsiya iqtisodiy kategoriysi mazmunan o'zgarish, yangilanish degan ma'noni anglatsa, korxona boshqaruvi amaliyotida ushbu tushuncha funksional jihatdan ishlab chiqarish jarayonlari, jumladan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash yoki o'zgartirish (takomillashtirish)ni bildiradi.

Zamonaviy menejment sohasida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga nisbatan shakllangan ko'p sonli ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, innovatsyaning keng qamrovli tushuncha ekanligini aytish mumkin bo'ladi. Tahlillarga ko'ra, innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin bo'ladi: [7]

- innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yangilik, nau-xau bilan bog'liq holda tushuntirish;
- innovatsyaning mazmunini yoritishda yangi bir mahsulotni ishlab chiqarish, jumladan, uning texnik va texnologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan butun bir jarayon sifatida tushuntirish;
- innovatsiya mazmunini yoritishda yangi g'oya va fikrlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, yangi shakldagi takomillashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakatga keltiruvchi kuch sifatida baholash.

1.1-jadval

Korxona boshqaruvida innovatsiya tushunchasi [8]

Iqtisodchi olim	Innovatsiya iqtisodiy kategoriyasi tarifi
Innovatsiya – yakuniy natija sifatida	
Fatxuddinov R.A.	Yangiliklarni boshqaruuv obyektiga joriy etish natijasida ijtimoiy, iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa jihatdan olingan samara
Balabanov I.T.	Yangi texnika yoki texnologiya, ishlab chiqarishni yangicha shaklda tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish, xizmat ko'rsatish va boshqaruuv sifatini yaxshilash, jumladan, rejalashtirish, nazorat qilish va korxona faoliyatini tahlil etishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etishga sarflangan kapital qo'yilmalarining moddiy ko'rinishdagi natijasi
Prasolova V.P., Malyshev N.I.	Korxona tomonidan yangi turdag'i yoki takomillashgan mahsulotni ishlab chiqarish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash yoki takomillashtirish natijasi. Korxona boshqaruvida innovatsiya ilmiy-texnik yangilik, ishlab chiqarish jarayonlarining o'zgarishi, tijoratlashtirish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.
Surin A.V., Molchanova O.P.	Iste'molchilarining ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi g'oya va bilimlardan amaliyotda foydalanishning natijasi
Rumyansev A.	Yangi va takomillashtirilgan texnologiya, shuningdek, mahsulotlarni amaliyotga joriy etish natijasida insonlarning turmush kechirish shart-sharoitlari, jamiyat hayoti, iqtisodiyot tarmoqlari va ekologiyadagi o'zgarishlar
Sokolov D.V., Titov A.B.	Jamiyat a'zolarining ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish maqsadida mutlaqo yangi yoki tubdan takomillashtirilgan yangiliklarni korxona amaliyotiga tatbiq etish orqali erishilgan iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy va ekologik samara
Qalmuratov B.S.	Innovatsion boshqaruuv mintaqaning ilm-fan va innovatsion kompleksi faoliyatining dolzarb muammolari, shuningdek, maxalliy darajada innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning amaldagi usullari samaradorligi nuqtai nazaridan hal etishi kerak
Innovatsiya – jarayon sifatida	
Tviss B.	Ixtiro yoki yangi g'oyaga iqtisodiy mazmun berish jarayoni
Yakoves Yu.V.	Insonlarning faoliyati yo'nalishlari bo'yicha yangiliklarni (faoliyatning yangicha shakli, turlari) kiritish orqali mazkur faoliyat turining samaradorligini oshirish jarayoni
Medinskiy V.G., Sharshukova L.G.	Fan yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali korxonaning asosiy kapitali (ishlab chiqarish fondi) yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tubdan yangilash asosida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar
Xant Dj.	Yangi g'oyalarni vujudga kelishi va ularni amaliyotga joriy etish jarayoni
Priščipenko M.V.	Ilmiy faoliyat natijalaridan amaliyotda foydalanish jarayoni
Abduraxmonov I.	Ilmning mablag'ga aylanish jarayoni
Nazarmatov O.S.	Innovatsion boshqaruuv bu jarayonlarni boshqarish vazifalaridan biri, ya'ni ishlab chiqarishni innovatsion tashkil etish orqali tovarning qo'shilgan qiymatini ko'paytirishdir

Yuqorida keltirilgan menejment sohasidagi innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosaga kelish mumkin bo‘ladi: “Innovatsiya bu – ilm-fan sohasida ishlab chiqilgan yangi bilimlar, jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik-texnologik jihatdan takomillashtirishga maqsadida shakllantirilgan g‘oyalarni korxonalar boshqaruvida amaliyotga tatbiq etilishi natijasida avvalgi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga nisbatan takomillashtirilgan yoki mutlaqo yangi ko‘rnishdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning mahsuli hisoblanadi”.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, korxona boshqaruvi amaliyotida innovatsiya, yangilik va yangilik kiritish tushunchalari o‘zaro farqlanadi. Masalan, “xonani qayta jihozlash, jumladan, yangi mebel, texnika va ishlab chiqarish vositalarini olish yangilik hisoblansa, korxonaga yollanma xodimlarning ishga kelib-ketishi bo‘yicha ro‘yxat avval yuritilmagan bo‘lsa, va u korxona amaliyotiga joriy qilinsa, u taqdirda bu yangilik kiritish hisoblanadi. Ushbu o‘zgarishlar korxona boshqaruvida katta ko‘lamdagi, tizimli o‘zgarishlarni sodir etmaganligi sababli ularni innovatsiya deb baholab bo‘lmaydi” [9]. Mazkur vaziyatni inobatga olgan holda, korxona boshqaruvi jarayonida innovatsiya keng ko‘lamli tizimli o‘zgarishlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi deb aytish maqsadga muvofiq.

Korxona boshqaruvida innovatsiyaning mohiyatini tushuntirish maqsadida amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, innovatsiya tarkibiy jihatdan tashkiliy tuzilishida yangiliklar, yangiliklarni joriy etish, yangi ishlanmalar, ixtirolarni o‘z ichiga qamrab olishi mumkinligi aniqlandi (1.2-rasmga qarang). Bunda korxona boshqaruvida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha yangi fikrning vujudga kelishidan tortib to uning korxona boshqaruvi amaliyotiga joriy etilgunga qadar bo‘lgan vaqt ni o‘z ichiga olishi zarur bo‘ladi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, zamонави мениджмент соҳасидаги амалга оширилайотган корхоналарнинг innovatsion boshqaruvi амалийотини takomillashtirishga qaratilgan aksariyat fundamental tadqiqotlarda korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish tamoyillari, uning texnik-texnologik ta’minoti, shuningdek, innovatsion loyihalarni rejalashtirish bo‘yicha kompleks ilmiy-texnik rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga ustuvorlik qaratilmoqda. Bunda korxona boshqaruvi амалийотини ilmiy-texnik siyosatni амалга ошириш зарурини vujudga keladi. Ushbu vazifani ijobjiy hal etishda avvalo korxona boshqaruvida qanday innovatsiyadan foydalanishni aniqlashtirish lozim bo‘ladi. bugungi kunda korxona boshqaruvida innovatsiyaning turli shakllari mavjud bo‘lib, ularni 1-ilovada turli guruhlarga ajratgan holda keltirib o‘tdik.

Korxona boshqaruvida innovatsiyaning mohiyatini ochib berish maqsadida амалга ошириган тадқиқотларимиз натижаларига асосланган holda аytish uni korxonaning innovatsion faoliyati mahsuli sifatida baholash mumkin degan xulosaga kelindi. Iqtisodiy adabiyotda korxonaning innovatsion faoliyatiga nisbatan ko‘psonli ilmiy qarashlar shakllangan hisoblanadi. korxona innovatsion faoliyati iqtisodiy kategoriya sifatida “korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (tovar va xizmatlar) nomeklaturasini (assortimenti, turlari) kengaytirish, ularni yangilash, sifat jihatdan yaxshilash, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan

takomillashtirishga qaratilgan maxalliy va xorijiy mamlakatlardagi ilm-fan yutuqlarini, jumladan ilmiy tadqiqot tajriba-konstrukturlik ishlanmalaridan foydalanish va ularni tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat" hisoblanadi.

Tahlillarga ko‘ra, korxonaning innovatsion faoliyati ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarishning yangi omillardan tashkil topgan avvalgisiga nisbatan takomillashtirilgan kombinatsiyaluvini anglatadi. Korxona innovatsion faoliyati natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yangi kombinatsiyalarga yangi mahsulot yaratish, yangi texnologiyani qo‘llash, yangi savdo bozorini o‘zlashtirish, yangi hom ashyodan foydalanish, ishlab chiqarishni qayta tashkil etish kabilarni kiritish mumkin bo‘ladi (1.3-rasmga qarang). Korxona tomonidan yangi savdo bozorlarini o‘zlashtirilishi innovatsion marketing bilan bog‘liq jarayon hisoblanai. Bunda korxona uchun mutlaqo yangi bo‘lgan, avval uning mahsulotlari ushbu bozorlarda sotilmagan bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Hulosi. Zamonaviy menejment sohasida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga nisbatan shakllangan ko‘p sonli ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, innovatsiyaning keng qamrovli tushuncha ekanligini aytish mumkin bo‘ladi. Tahlillarga ko‘ra, innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin bo‘ladi:

- innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yangilik, nau-xau bilan bog‘liq holda tushuntirish;
- innovatsiyaning mazmunini yoritishda yangi bir mahsulotni ishlab chiqarish, jumladan, uning texnik va texnologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan butun bir jarayon sifatida tushuntirish;
- innovatsiya mazmunini yoritishda yangi g‘oya va fikrlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, yangi shakldagi takomillashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakatga keltiruvchi kuch sifatida baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития: Исследования предпринимательской прибыли, капитала, кредита и цикла конъюнктуры. – М.: Прогресс, 1982.
2. Теребова С.В. Активизация инновационного процесса в регионе [Текст]:монография/С.В.Теребова, Е.С.Губанова. – Вологда:ВНКЦ ЦЭМИ РАН,2009.– 179 с.
3. Шумпетер й. Теории экономического развития. / Й. Шумпетер. – М.: Экономика, 1995й. – 540 с.
4. Никсон Ф. Роль руководства в предприятии в обеспечении качества и надежности / Ф. Никсон. – М. : Издат. стандартов, 1990. – 317 с.
5. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями : Пер. с англ. / Б. Твисс. – М. : Экономика, 1989. – 271 с.
6. Санто Б. Инновация как средство экономического развития: Пер. с венг. / Общ. ред. и вступ. ст. Б. В. Сазонова. – М. : Прогресс, 1990. – 296 с.

7. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями : Пер. с англ. / Б. Твисс. – М. : Экономика, 1989. – 271 с.;
8. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент: «Менеджмент организаций». – Москва: Инфра – М., 2008. – 293 с.;
9. Фатхуддинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Санкт-Петербург: Питер Пресс, 2012. – 447 с.;
10. Рожкова Е.В. Инновационный менеджмент. Ульяновск: УлГУ, 2016. – 258 с.;
11. Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришнинг назарий ва услугубий асослари “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/12_Norov.pdf.;](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/12_Norov.pdf;)
12. Назарматов О С. Тўқимачилик саноати корхоналарида инновацион жараёнларни бошқариш услугиётини такомиллаштириш. Монография. – Фаргона: Al-Ferganus, 2021. – 200 б.
13. Қалмуратов Б.С. Инновацион бошқаришнинг ташкилий-иктисодий механизмини ривожлантириш стратегияси (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Иқт. фан. фал. док. (PhD) дисс. автореф. Тошкент – 2019. – 56 б. ma'lumotlari asosida tuzilgan
14. Новизна с последствиями [Электронный ресурс]: Известия, 2009. – Режим доступа: